



The role of artistic stylistic means in masterpieces of world literature

Dilshod NASRIDDINOV¹, Maftuna RUZMETOVA²

Nordik International University

Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2023

Received in revised form

10 August 2023

Accepted 25 September 2023

Available online

15 November 2023

Keywords:

alliteration,
simile,
anaphor,
irony,
metaphor,
metonymy,
synecdoche.

ABSTRACT

This article analyzes the unique contribution of literary stylistic devices to the content and form of works in the masterpieces of world literature. Literary stylistic devices present in several works of famous writers of world literature are given as examples, and their translations are also given. As a result of the research, the article was introduced to the writing style and literary stylistic tools used in the works of most famous representatives of world literature, and the functions they performed in the work were analyzed. Finally, literary stylistic tools such as metaphor, simile, metonymy, hyperbole, irony, alliteration, anaphora, synecdoche, etc. effectively help the author fully reveal the content of the work, illuminate the inner state of the characters and convey their feelings and inner experiences to the reader in a more effective way.

2181-3701/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss5-pp60-66>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Badiiy stilistik vositalarning jahon adabiyoti durdona asarlaridagi o'рни

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

alliteratsiya,
simili,
anafora,
ironiya,
metafora,
metonimiya,
sinekdoxa.

Ushbu maqolada badiiy stilistik vositalarning jahon adabiyoti durdona asarlaridagi asar mazmuni va shakliga qo'shgan o'ziga xos hissasi tahlil qilingan. Jahon adabiyotining mashhur yozuvchilarining bir nechta badiiy asarlarida mavjud badiiy stilistik vositalar misol sifatida keltirilib, ularning tarjimalari ham berilgan. Maqolada izlanishlar natijasida jahon

¹ PhD, Associate Professor, Nordik International University. E-mail: dilshodnasr@gmail.com

² Master's student, Department of Theory and Practice of Translation, Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature. E-mail: maftunaruzmetova99@gmail.com

adabiyotining aksariyat mashhur namoyondalarining yozish uslubi va asarlarida qo'llanilgan badiiy stilistik vositalar bilan tanishib, ularning asarda bajargan vazifalari tahlil qilindi. Yakunda, metafora, simili, metonimiya, giperbola, ironiya, alliteratsiya, anafora, sinekdoxa kabi badiiy stilistik vositalarning asar mazmunini to'la ochib berishda, qahramonlarning ichki holatini yoritishda va his-tuyg'u, ichki kechinmalarini kitobxonga yanada ta'sirli tarzda yetkazib berishda muallifga samarali yordam berishi xulosa qilindi.

Роль художественных стилистических средств в шедеврах мировой литературы

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

аллитерация,
сравнение,
анафора,
ирония,
метафора,
метонимия,
синеκdoxa.

В данной статье анализируется уникальный вклад литературно-стилистических приемов в содержание и форму произведений шедевров мировой литературы. В качестве примеров приведены литературно-стилистические приемы, присутствующие в ряде произведений известных писателей мировой литературы, а также приведены их переводы. В результате исследования в статье были представлены стиль письма и литературно-стилистические средства, используемые в творчестве наиболее известных представителей мировой литературы, а также проанализированы функции, которые они выполняли в произведении. Наконец, такие литературно-стилистические средства, как метафора, сравнение, метонимия, гипербола, ирония, аллитерация, анафора, синеκdoxa и др., эффективно помогают автору полностью раскрыть содержание произведения, осветить внутреннее состояние героев, передать их чувства и внутренний мир. опыт для читателя более эффективным способом.

Badiiy stilistik vositalar muallifga chuqurroq ma'noni yetkazishga yordam beruvchi maxsus vositalar bo'lib, asar syujetiga yanada joziba bag'ishlaydi. Badiiy stilistik vositalarning ko'plab turlari mavjud bo'lib, har biri turli maqsadlarga xizmat qiladi. Jahon adabiyotida yozilgan eng sara asarlarning barchasida ushbu badiiy stilistik vositalarni uchratish mumkin. Kitobxonga asar qahramonining vaziyati, ichki kechinmalari va his-tuyg'ularini yetkazib berishda ularning o'rni beqiyos. Shu kabi jihatlarni jahon adabiyoti vakili Uilyam Shekspir ijodida ko'rishimiz mumkin. Uilyam Shekspir shu davrgacha yashab o'tgan eng buyuk shoirlardan biri hisoblanadi. Uning shuhrati u yaratgan kichik she'rlar yoki uning 154 sonetlari bilan chegaralanib qolmay, balki uning pyesalari bilan ham ahamiyatlidir. Shekspir o'z asarlarida ko'plab klassik badiiy stilistik vositalardan foydalangan. Hech bir yozuvchi mutlaqo yangi narsani o'ylab topmaydi: she'riyat adabiy janrning bir bo'lagi sifatida yaratiladi. Bu borada barcha shoirlar qaysidir ma'noda o'tmishdagi buyuk shoirlarining ijodkor merosxo'rlari sanaladi. Ularning asosiy vazifasi

ajdodlardan uslub va vositalarni o'rganib, zamonga hamnafas bo'lgan ijodiy mahsullarni yaratishdan iborat. Bunga misol sifatida, Shekspir o'zining she'riyatida Gomerning "Iliada" va "Odisseya" dostonidagi badiiy stilistik vositalardan mahorat bilan foydalanganini ko'rishimiz mumkin.

Shekspir she'riyatining asosini tashkil etgan badiiy stilistik vositalardan biri bu alliteratsiyadir. Ushbu badiiy stilistik vositani adibning mashhur va durdona asari bo'lgan "Romeo va Julietta"ning dastlabki satrlaridanoq ko'rishimiz mumkin: "From forth the fatal loins of these two foes; A pair of star-cross'd lovers take their life" [1] (Va lekin bu dushman oilalardan tug'ilgan farzandlar sevishib qoldi. Bu ikki baxtsizning o'limi bilan, Adovat o'zi ham go'rda yo'qoldi) [2]. Adib ijodidagi alliteratsiyaning sezilarli ta'sirini uning yana bir asari 12-sonetda ham ko'rishimiz mumkin: "Borne on the bier with white and bristly beard" [3] (G'aramlar janoza aravasidan soqolin silkitib o'tarkan bizga) [4]. Shoir ijodidagi alliteratsiyaning ta'sirchanlik kuchini uning misralaridagi undoshlar takroridan anglashimiz mumkin: "When wasteful war shall statues overturn" [5] (Haykallarni yiqsin urush shiddati) [6]. Shunday ekan, ingliz adabiy muhitida alliteratsiya stilistik vositasining Shekspir ijodida muhim o'rin tutganligiga guvoh bo'lamiz.

Shekspir ijodida keng qo'llangan yana bir stilistik vosita simili bo'lib, u nasrga nisbatan she'rning xarakter xususiyatiga ko'proq mos keladi, ushbu holat esa similini chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Ushbu badiiy stilistik vositani o'rganish jarayonimizda biz yana Shekspir ijodi bilan ro'baro' keldik. Shekspirning "Romeo va Julietta" asarida Juliettaning quyoshga o'xshab badiiy tasvirlanishi asar qahramoni Romeo tomonidan ushbu misrada keltirilib o'tiladi:

But soft! What light through the yonder window breaks?

It is the East, and Juliet is the sun!

Arise, fair sun, and kill the envious moon,

Who is already sick and pale with grief. [7]

(Derazada lipillagan o'sha nur nima?

U yerdadir oltinrang qiz, Julietta-quyosh!

Ey oftob, rashk qiluvchi oyni o'ldirgin,

Oy rashkidan so'lib qolgan o'zi xastahol) [8]

Yunon shoirlarining Shekspirga ta'siri rad etib bo'lmas hodisa, lekin Shekspir badiiy stilistik vositalardan foydalanish mahorati bilan ulardan ajralib turadi.

Simili vositasini qo'llashda yana bir mohir ijodkor, ingliz adabiyotining yorqin namoyondasi Sharlotta Bronte o'zining yozgan asarlarida qahramon istak-xohishi va ijtimoiy sinfi o'rtasidagi ziddiyatlarni muhokama qiluvchi ayol haqida hikoya qiladi. Adib asarlarida yozish uslubi rasmiy va tasviriy, murakkab so'zlardan tashkil topgan jummalarni uchratamiz. Gaplarning tuzilishi murakkab bo'lsa-da, oddiy o'quvchilar uchun tushunarli, ayni paytda kitobxon uchun romanni o'qishni qiyinlashtirmaydi. Metafora va o'xshatish hamda real dialoglar kabi umumiy xususiyatlardan foydalanish romanni yanada boyitadi. Simili vositasi orqali quyidagi parchada tasviriylilik kuchaytiriladi:

"Jane, be still; don't struggle so, like a wild frantic bird that is rending its own plumage in its desperation"

'I am no bird; and no net ensnares me; I am a free human being with an independent will, which I now exert to leave you.' [9] (Jeyn, jim bo'l; noilojlikdan o'z patlarini yirtayotgan yovvoyi qush kabi tipirchilama.

Men qush emasman; va hech qanday to‘r meni tuzoqqa tushirmaydi; Men mustaqil irodaga ega bo‘lgan erkin insonman, endi men sizni tark etishga harakat qilaman) [10]. Bunda “yovvoyi qush kabi” iborasida “like” so‘zi orqali simili hodisasi hosil etilgan. Bizningcha, simili ingliz asarlarida o‘ziga xos bo‘lib, o‘zbek tiliga tarjima qilinganda o‘xshatish, sifatlash kabi hodisalarni yuzaga keltiradi.

Badiiy stilistik vositalar ichida o‘xshatish jihati bilan metafora ham muhim vazifani bajaradi: “True, generous feeling is made small account of by some; but here were two natures rendered, the one intolerably acrid, the other despicably savourless for the want of it. Feeling without judgment is a washy draught; indeed, but judgment untempered by feeling is too bitter and husky a morsel for human deglutition.” [11] Ushbu ingliz tilidagi parchadan o‘zbek tiliga tarjima qilganimizda metaforik hodisaning bo‘yoqdorligi ancha seziladi. *(To‘g‘ri, saxovat tuyg‘usini ba‘zilar arzimas hisoblaydilar; lekin bu yerda ikkita tabiat mavjud: biri chidab bo‘lmas darajada o‘tkir, ikkinchisi esa buning yetishmasligi sabab o‘ta darajada ta‘msiz edi. Hukmsiz tuyg‘u, haqiqatan ham, zerikarli qoralama; Ammo his-tuyg‘ularsiz hukm – bu juda achchiq va bo‘g‘iq bo‘lib, insonning holsizlantiradi)*.* Ushbu misolda Sharlotte Brontening asar qahramoni Jeyn tomonidan inson tabiatini suv va yegulikka o‘xshatishi metaforik hodisani vujudga keltiradi.

Shu kabi metafora tasviriy vositasidan mohirona foydalangan yana bir yozuvchilardan biri Charls Dikkensdir. U qolgan adiblarga nisbatan o‘zgacha badiiy uslubni tanlagan va o‘zining intellektual g‘oyalari bilan avlodlarni ilhomlantirgan. U adabiy faoliyatini jurnal va gazetalar uchun maqola va insholar yozishdan boshlaganligi sababli, u ko‘pgina hikoyalarida xuddi shu uslubni muvaffaqiyatli sinab ko‘rdi. Ideal xarakteristikasi va satirik ohangi bilan ajralib turadigan “Oliver Twist”da u o‘zining ijodiy mahoratini namoyish etadi. U jamiyat haqidagi zohiriy haqiqatlarni ko‘rsatish uchun ko‘pchilik romanlarida realizm, din va tabaqalanishni ochib bergan. Xarakter xususiyatlarini ko‘rsatish uchun u personifikatsiya, metonimiya, simili va metafora kabi stilistik vositalardan foydalangan. “Mashaqqatli zamon” asarining ilk bobida adib maktab o‘quvchilarini M’Choakumchildning saboqlari bilan “to‘ldirilishi lozim bo‘lgan idishlar”ga qiyoslab metaforik stilistik uslubda mohirona foydalanadi: “The speaker, and the schoolmaster...all backed a little and swept with their eyes the inclined plane of little vessels then and there arranged in order, ready to have imperial gallons of facts poured into them until they were full to the brim.” [12] (Ma‘ruzachi ham, maktab o‘qituvchisi ham... hammasi bir oz orqasiga o‘girilib, ko‘zlari bilan qiyshaygan mayda idishlarni ko‘zdan kechirishdi, ular to‘g‘ridan to‘g‘ri to‘lguncha ularga bir necha gallon faktlarni quyishga tayyor turishdi) [13]. Mashhur “Oliver Twist” asarida ham personifikatsiyaga yaqqol misolni ko‘rishimiz mumkin: “We have none of us long to wait for Death. Patience, patience! he’ll be here soon enough for us all.” [14] (Hech birimizning o‘limni kutishga vaqtimiz qolmadi. Sabr, sabr qiling! U tezda keladi). Bu misolda o‘lim, sabr kabi mavhum narsalar jonlantirilib, asarning ta’sirchanligining oshishiga sabab bo‘lgan.

Jonli tasvirlash qobiliyatiga ega yana bir adib bu Ernest Heminguey bo‘lib, u ko‘plab buyuk amerikalik yozuvchilar orasida o‘zining ob‘yektiv va ravon nasriy uslubi bilan mashhur. U yozgan romanlar ichida “Chol va dengiz” muallifning o‘ziga xos yozish uslubini o‘zida aks ettiradi. Asar tili oddiy va kitobxonga tushunarli bo‘lib, bu adibning jurnalist sifatidagi tajribasi bilan bog‘liq. Adib uslubining butun dunyo yozuvchilari

* Parcha muallif tomonidan tarjima qilingan

ijodiga ta'siri katta. "Chol va dengiz", shubhasiz, Hemingueyning shoh asaridir. Chunki aynan ushbu asar barcha asarlari orasida Hemingueyning o'ziga xos til uslubini yaqqol namoyon etadi. Uning tili sodda va tushunarli bo'lib, o'zida aniqlik xususiyatlarini aks ettiradi. Buning sababi shuki, yozuvchi oddiy va kundalik hayotda ishlatiladigan so'zlarni mahorat bilan qo'llagan. Adib sifatlar va mavhum otlarni kam ishlatadi, murakkab sintaksisdan qochadi. Hemingueyning ijodiy jozibasi uning qisqa jumalari va juda aniq tafsilotlarida namoyon bo'ladi.

Adib asarlarida personifikatsiyaga juda ko'plab misollar mavjud. Uning "Chol va dengiz" asarida quyidagi parcha mavjud: "the wind is our friend, anyway, he thought." [15] (Shamol – bu, so'zsiz, bizga birodar)) [16]. Personifikatsiyaga misolni muallif shamolni birodar deya ta'riflashida ko'rishimiz mumkin. Shamol tirik narsa emasligi sababli, u do'st bo'la olmaydi. Biroq, bu misolda baliqchining shamol haqida qanday hisga ega ekanligini anglashimizga personifikatsiya bizga yordam beradi. Baliqchi shamol ularga yordam berishiga ishonadi va buni hayoti va sayohatining ijobiy tomoni deb hisoblaydi. Hikoyachi shamolni "yaxshi" deb aytishi mumkin edi, lekin uni "do'st" deb atash, hikoyadagi qahramonlar shamolni qadrlashi va undan xursand bo'lishlarini aniq ko'rsatadi. Personifikatsiyaning yana bir misoli, bola chol bilan birinchi marta baliq oviga borganini eslayotganida keltirilgan: "feeling the whole boat shiver and the noise of you clubbing him like chopping a tree down and the sweet blood smell all over me". [17]. (Qayiq zirillab qaltirovdi, xuddi o'tin chopganday to'qmog'ingni to'q-to'q ovozi eshitilib turuvdi. Hamma yoqni chuchmal qon hidi bosib ketgan edi) [18] ya'ni "shivering boat" – "qaltiragan qayiq" tushunchasi personifikatsiyaning yaqqol namunasi hisoblanadi.

Bularning barchasi, albatta, asarning badiiyligini oshirgan. Biz yuqorida guvohi bo'lganimiz bu Ernest Heminguey ijodi bo'yicha dengizdan tomchidir. Uning yana ko'plab roman va hikoyalarida biz juda ko'plab badiiy stilistik vositalarga duch kelishimiz mumkin.

Sarguzasht janrida yozilgan "Robinzon Kruzo" romani bilan mashhur bo'lgan Daniel Defo Angliyalik jurnalist, risola muallifi, savdogar va yozuvchi edi. U ingliz romanining asoschilaridan biri sanaladi. Daniel Defo ko'p qirrali bo'lib, samarali ijod qilgan, besh yuzdan ortiq jurnallar, risolalar va kitoblar yozgan. Daniel Defo o'zining jonli va jo'shqin uslubi bilan mashhur bo'lib, u aniq tafsilotlar va illyustratsiyalar bilan to'la. Daniel Defoning uslubini boshqalardan ko'ra ko'proq ajratib turadigan narsa shundaki, uning so'zlari orqali kitobxon hayolida aniq tasvirlar gavdalanadi, uslubi esa sodda va kamtar. U o'z ishini murakkab iboralar va so'zlar bilan ortiqcha bezatmasdan, o'zi aytmoqchi bo'lgan fikrni samarali tarzda yetkaza olgan. Daniel Defoning mashhur asari "Robinzon Kruzo"da ko'plab badiiy stilistik vositalardan foydalanilgan. Masalan, asar bosh qahramoni Robinzonning kema halokatidagi holatini tasvirlash maqsadida giperboladan ancha samarali foydalanilgan: "I expected every wave would have swallowed us up, and that every time the ship fell down, as I thought, in the trough or hollow of the sea, we should never rise more". [19]. (Katta to'lqinlar kemaga har gal kelib urilganda, men hozir dengizga g'arq bo'lamiz deb o'ylar edim. Kema har gal baland ko'tarilgan to'lqin ustidan pastga sho'ng'iganda, men u endi qaytib ko'tarila olmasa kerak, der edim) [20]. Yuqoridagi parchada nafaqat giperbola, balki personifikatsiya ham qo'llanilgan. Ya'ni "to'lqin bizni yutib yuborishi mumkin edi" birikmasida to'lqinlarni jonlantirib, ularga insonga xos xususiyatlar baxsh etilgan. Muallif butun roman davomida okeanni tasvirlash uchun bir qancha metaforalardan foydalanadi. Dengizdagi

to'liqlarning tasvirini metaforik usulda tasvirlash, shuningdek, ulkan okeanni qamoqxonaga qiyoslanishi bunga namuna bo'la oladi: "[...] and my very heart would die within me, to think of the woods, the mountains, the deserts I was in; and how I was a prisoner lock'd up with the eternal bars and bolts of the ocean, in an uninhabited wilderness, without redemption: In the midst of the greatest composures of my mind, this would break out upon me like a storm, and make me wring my hands, and weep like a child". [21]. (...yuragim esa o'rmonlar, tog'lar, cho'llar haqida o'ylasam, orqaga tortib ketardi; Qanday qilib men okeanning abadiy panjaralari va murvatlari bilan qamalgan, hech kim yashamaydigan sahroda, qutqarilmasdan qamalgan mahbus edim: ongimning eng katta xotirjamligi o'rtasida bu mening boshimga bo'ron kabi urardi va boladek yig'lardim) [22].

Orolda bir necha yil bo'lganidan so'ng, Robinzon o'z hayotidan tobora ko'proq mamnun bo'la boshlaydi. U o'z hayvonlari bilan jamoa bo'lib, Xudodan tasalli topadi va o'zi ega bo'lgan oziq-ovqat, asbob-uskunalar va boshqa narsalar uchun shukronalik his qiladi. U hatto o'ziga bu hayotni afzal ko'ra boshlaydi. Bu mamnuniyatni yozuvchi orolni stolga qiyoslab, metafora orqali ifodalaydi: "How mercifully can our great Creator treat his creatures, even in those conditions in which they seem'd to be overwhelm'd in destruction. How can he sweeten the bitterest Providences, and give us cause to praise him for dungeons and prisons. What a table was here spread for me in a wilderness, where I saw nothing at first but to perish for hunger!" [23] (Buyuk Yaratguvchimiz o'z jonzotlariga, hatto ular halokatga uchragan sharoitda ham qanchalik mehribon. Qanday qilib u eng achchiq narsalarni shirin qiladi va azoblar uchun Uni maqtashimizga sabab bo'ladi. Cho'lda men uchun dasturxon yoyilgan edi, ammo avvalida men u yerda ochlikdan o'lishdan boshqa hech narsani ko'rmagandim!).

Qisqa qilib aytganda, "Robinzon Kruzo" sarguzasht janrida yozilganligi tufayli ko'plab g'ayrioddiy va kutilmagan voqealarga boy, shu tufayli ham bu hodisalarni jonlantirishda muallifga badiiy stilistik vositalar katta yordam bergan.

Jahon adabiyoti durdona asarlari minglab kitobxonlar ko'nglidan joy olishiga ko'plab sabablarni keltirishimiz mumkin. Jumladan, yozuvchining mahorati, asar mavzusining hayotiy va dolzarbligi, vaqt sinovidan o'tganligi, bir necha avlod tomonidan sevib o'qilishi va, albatta, badiiy stilistik vositalardan samarali foydalanish mahorati ham bunda katta ahamiyat kasb etadi. Biz yuqorida jahon adabiyotining aksariyat mashhur namoyondalarining yozish uslubi va asarlarida qo'llanilgan badiiy stilistik vositalar bilan tanishib, ularni tahlil qilishga harakat qildik. Bundan ko'rinib turibdiki, durdona asarlarda badiiy stilistik vositalarni qo'llash barcha yozuvchilarga xos. Bunday vositalar asar mazmunini ochib berishda, qahramonlarning holatini yoritishda va his-tuyg'u, kechinmalarini kitobxonga yanada ta'sirli tarzda yetkazishda muallifga qo'l keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. William Shakespeare. The tragedy of Romeo and Juliet. D.C. Health&Company – 1913. -P.3
2. Romeo va Julietta. Maqsud Shayxzoda tarjimasi. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent-1981. -B.24
3. William Shakespeare "Sonet XII" <https://shakespeares-sonnets.com/sonnet/12>
4. Uilyam Shekspir. 12-sonet. Yusuf Shomansur tarjimasi. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent-1978. -B.16

5. William Shakespeare Sonet LV <https://shakespeares-sonnets.com/sonnet/55>
6. Uilyam Shekspir. 55-sonet. Yusuf Shomansur tarjimasi. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent-1978. -B.67
7. William Shakespeare. The tragedy of Romeo and Juliet. D.C. Health&Company – 1913. -P.34
8. Romeo va Julietta. Maqsud Shayxzoda tarjimasi. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent-1981. -B.67
9. Charlotte Bronte. Jane Eyre. CreateSpace Independent Publishing Platform-2009. -P.268
10. Charlotte Bronte. Jane Eyre. CreateSpace Independent Publishing Platform-2009. -P.218
11. Charles Dickens "Hard times". Huge Print Press-1858. -P.206
12. Charles Dickens "Oliver Twist". Sterling-2008. -P.187
13. Ernest Hemingway. The old man and the sea. Vintage-1999, -P.48
14. Chol va dengiz. Ibrohim G'ofurov tarjimasi. "Yosh gvardiya" nashriyoti-1986.- B.41
15. Ernest Hemingway. The old man and the sea. Vintage-1999. -P.176
16. Chol va dengiz. Ibrohim G'ofurov tarjimasi. "Yosh gvardiya" nashriyoti-1986.- B.3
17. Daniel Defoe. Robinson Crusoe. MACMILLAN AND CO. London 1868. -P.6
18. Robinzon Kruzo. Yo'ldosh Shamsharov tarjimasi. Cho'lpon nashriyoti-1994. -B.5
19. Daniel Defoe. Robinson Crusoe. MACMILLAN AND CO. London 1868. -P.110
20. Robinzon Kruzo. Yo'ldosh Shamsharov tarjimasi. Cho'lpon nashriyoti-1994. -B.128
21. Daniel Defoe. Robinson Crusoe. MACMILLAN AND CO. London 1868. -P.143
22. Robinzon Kruzo. Yo'ldosh Shamsharov tarjimasi. Cho'lpon nashriyoti-1994. -B.203
23. Robinzon Kruzo. Yo'ldosh Shamsharov tarjimasi. Cho'lpon nashriyoti-1994. -B.168